



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> June, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

### O'G'UZ LAHJASINING O'ZIGA XOS LEKSIK XUSUSIYATLARI

Mohira Sa'dullayeva

NavDPI 1-kurs tayanch doktoranti

#### Annotatsiya:

Ushbu maqolada har doim dolzarb mavzu sifatitida ifoda etib kelinayotgan tilshunoslikning asosiy birliklaridan biri sheva va lahjalarning leksikasi haqida umumiy ma'lumot berilgan. Leksik xususiyat nima? Uning o'ziga xosligi o'g'uz lahjasini misolida ko'rib chiqilgan va olimlarning turli qarashlari hamda fikrlari keltirib o'tilgan. Namunalar orqali yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** lahja, leksik, grammatik, fonetik, dialektologiya, traditsion leksika, metofara, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik, sinonim, omonim, antonim, ko'p ma'nolilik.

O'zbek adabiy tili og'zaki va yozma shaklda ifodalanadi. Adabiy tilning paydo bo'lishi, rivojlanishida shevalarning alohida o'rni bor. Til shevalarda leksik, grammatik, fonetik xususiyatlarini olgan holda shakllanadi. Ma'lumki tilimizda qarluq, qipchoq, o'g'uz lahjalar mavjud bo'lib, har biri adabiy tildagi so'zlearning boyishiga, til xususiyatlarini namoyon qilishiga hissa qo'shamdi. Ushbu lahjalar hudud jihatidan ham bir-biri bilan farq qiladi, aholisi uchun tushunarli bo'lishi, so'zlashuv jarayonida qo'llanishi va ma'lum tasniflar berishda xizmat qiladi. Shuningdek, shevalarning o'zaro munosabati va adabiy tilga bo'lgan munosabatini belgilashda tarqalish hududlarini aniqlash dastlabki muhim ishlardan biridir.

Keltirilgan mavzu yuzasidan o'g'uz lahjasini vakillarini areal jihatdan chegaralab oladigan bo'lsak, "Bu lahja vakillari asosan O'zbekiston Respublikasi Xorazm viloyati, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Forish, Olot, Qorako'l tumanlarida, Turkmanistonning Toshhovuz, Qozog'istonning Qarnoq, Iqon, Qorabuloq, Qoramurt, Mankent aholi punktlarida istiqomat qiladilar". Demak, o'g'uz lahjasini o'z xususiyatiga ko'ra janubiy-g'arbiy guruhga kiradi.

Har bir sheva va lahjaga xos leksik qatlama mavjud. Leksik farqlar esa shevalararo bir predmetni yoki harakat-holatni boshqa-boshqa so'zlar orqali ifoda qilishdan iborat. Biz dialektlarning leksikasini o'rganish jarayonida uning sinonim, omonim, antonimlik hodisalrini tahlil qilish bilan bir qatorda so'zlearning ko'chma ma'noda ishlatalishi, usullari, ko'p ma'noli va eskirgan so'zlar kabilarga ham murojaat



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> June, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

qilamiz. Dialektologiyada leksika juda katta va bir necha olimlar tomonidan talqin etib kelinayotgan mavzu doirasi keng bo‘limlar sirasiga kiradi.

Ko‘p uchraydigan va muhokamalarga sabab bo‘luvchi ko‘p ma’noli so‘zlar o‘zbek tili leksikasining muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Bir narsa buyum xususiyati nomini boshqasiga ko‘chirish, o‘tkazish orqali ko‘p ma’nolilik hodisasi sodir bo‘ladi. Tilshunoslik fani orqali bizga ma’lumki, so‘z ma’nosi to‘rt xil usulda metofara, metonimiya, sinekdoxa va vazifadoshlik asosida ko‘chadi.

“O‘zbek shevalarining leksik sostavida traditsion leksika asosiy o‘rin egallaydi. O‘zbek xalq shevalari traditsion leksikasida paydo bo‘lishi jihatidan turli tarixiy davrlarga xos bo‘lgan leksik qatlamlarni uchratamiz...”.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan shuni anglash mumkinki, shevalar leksikasi kechagina paydo bo‘lмаган, ular turli tarixiy davrlarni bosib o‘тган, hattoki urug‘chilik davridan buyon mavjud bo‘lib, bugungi kunga qadar “yashab kelayotgan” dialektlar mavjud. Shuningdek, yangi so‘zlar yasalishi uchun baza va asos vazifasini bajarib kelmoqda. Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, barcha adabiy tilga xos bo‘lgan leksik belgilar shevalar uchun xos emas. Xuddi shuningdek, o‘zbek adabiy tilda uchramaydigan ba’zi so‘zlar leksikasini sheva (lahja)larda uchratishimiz mumkin.

O‘zbek adabiy tili o‘zining eng birinchi shakllanishidan buyon, taraqqiyot davri va hozirgi kungacha lahja va shevalar bilan bog‘liq. Jarayonda adabiy til shevalarga ijobjiy ta’sir o‘tkazsa, boshqa tomondan ular orqali boyib boradi. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” (“Turkiy so‘zlar devoni”) asarida lug‘atlar, turli xil maqollar, parchalar orqali xalqlarning dialektologik qarashlari to‘g‘risida dastlabki va muhim manbalarni bilib olishimiz mumkin.

Har bir sheva va lahjaning leksik xususiyati bir-biridan farq qiladi. So‘zlarni lug‘at tartibida keltirish orqali aniqroq aks ettirish mumkin. O‘g‘uz lahjasi misolida bir necha so‘zlarni ko‘rib chiqamiz.

“O‘g‘uz lahjasi leksikasining asosiy qismini o‘zbek adabiy tilida ishlataladigan umumturkiy so‘zlar tashkil etadi. Shevalar leksikasida forscha-tojikcha so‘zlar arabcha so‘zlarga qaraganda ko‘pchilikni tashkil etadi. O‘g‘uz lahjaga tegishli ba’zi so‘zlarni quyida keltirib o‘tamiz: ayil (qorinbog‘), nuqalav (boks), susaq (cho‘mich), secha (chumchuq), qara yag‘ (neft), yarish (musobaqa), ulli (katta) va b”.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan xulosa qiladigan bo‘lsak, xalq shevalari o‘zbek adabiy tilini, shuningdek, leksik tarkibini boyituvchi muhim manbalardan biridir.



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> June, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

O‘zbek tili-ko‘p dialektli til. Bu uning murakkab tarixiy taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tganligining yorqin ifodasidir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. S.Ashirboyev. O‘zbek dialektologiyasi. Darslik. T.: “Navro‘z”, 2016 y.
2. V.V.Reshetov, Sh.Shoabdurahmonov. O‘zbek dialektologiyasi. Darslik. T.: “O‘qituvchi”, 1978 y.
3. Y.Saidov. O‘zbek dialektologiyasi. O‘quv-metodik qo‘llanma. B.: “Durdona”, 2021 y.
4. Кошфарий М. Девону луготит турк. Т. I-II-III. –Тошкент.:Фан, 1960-1963.
5. N.Rajabov. O‘zbek shevashunosligi. T.: “O‘qituvchi”, 1996.